

# RF - “Ipak Yo‘li” banki

<b>Mamlakat:</b>	O‘ZBEKISTON
<b>Loyiha raqami:</b>	52198
<b>Faoliyat sohasi:</b>	Depozitar kredit (banklar)
<b>Bildirishnoma turi:</b>	XUSUSIY
<b>Ekologik toifasi:</b>	FI
<b>Tasdiqlanish muddati sanasi:</b>	2020-yil 2-iyun
<b>Qaysi bosqichdaligi:</b>	To‘lash
<b>Loyihaning qisqacha mazmuni</b>	2020-yil 15-oktabr
<b>ingliz tilida chop etilgan sana</b>	

## Loyiha mazmuni

O‘zbekistondagi eng yirik xususiy banklardan biri, MKO‘BK va “Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish” loyihasi (GEFF) kredit liniyalari, Savdoga ko‘maklashuvchi dastur (TFP) va Xavf-xatarlarni taqsimlash mexanizmi (RSF) orqali YTTBning xususiy sektor korxonalarini moliyalashtirish bo‘yicha faol hamkori hisoblangan “Ipak Yo‘li” aksiyadorlik innovatsiya tijorat bankiga Barqarorlik mexanizmi doirasida 15 million AQSH dollari (12,7 million yevro) miqdorida birinchi navbatdagi kredit berish.

Mazkur loyiha Bankning COVID-19 pandemiyasiga qarshi ko‘rgan chora-tadbirlaridan kelib chiqqan holda ma‘qullandi. Ushbu loyihani amalga oshirishda kechikishlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun Bank Prezidenti, Axborotdan foydalanish to‘g‘risidagi yo‘riqnomaning V bo‘limida ko‘zda tutilganidek, loyihaning qisqacha mazmunini chop etishning odatiy muddatlarini rad etdi. Bankning COVID-19 pandemiyasiga qarshi ko‘rgan chora-tadbirlari hamda mazkur rad etish holati haqidagi batafsil ma‘lumot bilan veb-saytimizda tanishishingiz mumkin.

## Loyiha maqsadi

Barqarorlik mexanizmi doirasida YTTB tomonidan qo‘shimcha moliyalash ko‘rinishidagi qo‘shimcha yordam hamkorga kredit berishda davom etish, mavjud kredit portfelini qo‘llab-quvvatlash va yuzaga kelgan murakkab sharoitda yangi qarz mablag‘lari orqali mijozlarga ko‘maklashishni ko‘zda tutadi. Hozirgi holatda YTTB tomonidan ajratiladigan yangi moliyaviy mablag‘lar bankni qo‘llab-quvvatlash istagida bo‘lgan boshqa kreditorlar uchun ham qo‘shimcha qulayliklar yaratadi.

## O‘tish davri ta’siri

ETI 80

Barqarorlik mexanizmi doirasidagi bu taklif qilinayotgan loyiha o‘tish davrining barqarorlik va

raqobatbardoshlik darajasini oshirishga ko'maklashishi barobarida, ayniqsa, favqulodda yuzaga kelgan vaziyatda moliyaviy mablag'lardan foydalanishda muammolarga duch kelayotgan MKO'BK tarmog'ini uzluksiz kreditlashni kafolatlash uchun mavjud hamkor hisoblanuvchi bankga uzoq muddatli moliyaviy mablag'lar taqdim etadi.

## **Mijoz haqida**

### **“IPAK YO‘LI” AKSIYADORLIK INNOVATSIYA TIJORAT BANKI**

“Ipak Yo‘li” banki O‘zbekistondagi xususiy banklar ichida 2-o‘rinda turuvchi eng yirik universal tijorat banki hisoblanib, u aktivlari hajmiga ko‘ra mahalliy 31 bank ichida 12-o‘rinda turadi. Mazkur bank o‘zining aktivlari va kreditlari bo‘yicha bozorning 2 foizini egallaydi. “Ipak Yo‘li” banki MKO‘BK va GEFF kredit liniyalari, TFP va RSF kabi vositalar yordamida oxirgi qarz oluvchi hisoblangan xususiy korxonalarni kreditlash sohasida YTTBning faol hamkori hisoblanadi.

Mazkur bank aksiyalarining boshqaruv paketi O‘zbekiston xususiy sektorida faoliyat ko‘rsatuvchi aksiyadorlarga tegishli. Shuningdek, “Ipak Yo‘li” bankining 29 foiz aksiyasiga uchta xalqaro moliyaviy muassasasi (XMM), 16 foiz aksiyasiga esa O‘zbekiston hukumati (ikkita davlat korxonasi orqali) egalik qiladi.

## **YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'lar**

15 000 000,00 AQSH dollari

15 million AQSH dollari miqdoridagi mazkur birinchi navbatdagi kredit uchta transh orqali o‘tkaziladi. Ushbu kreditni qaytarish muddati dastlabki imzolashdan boshlab hisoblaganda 3 yildan oshmaydi. Pul mablag'larini bevosita muomalaga kiritish ko‘zda tutilmagan.

## **Loyihaning umumiy qiymati**

15 000 000,00 AQSH dollari

## **Ekologik-ijtimoiy xulosa**

FI toifasiga kiritildi (ESP 2019) YTTBning samaradorligi talablari ko‘rib chiqildi va ESMS’ni joriy qilishning yo‘l xaritasi ishlab chiqildi. Bu o‘tkazma uchun mavjud ESMP yangilandi hamda yuqorida aytilgan yo‘l xaritasi bilan muvofiqlashtirildi. ESMP’ni amalga oshirish bankning (PR 2, PR4 va PR9) loyiha talablariga hamda YTTBning korporativ, kichik va o‘rta biznes korxonalari va mikrokreditlar uchun atrof-muhit va ijtimoiy xatarlarni boshqarish tartib-qoidalariga rioya qilishini ta‘minlaydi.

## **Texnik ko‘mak**

Ko‘zda tutilmagan.

## **Qo‘shimcha shartlar**

**Qo‘shimcha shartlar manbalari:** COVID-19 sababli yuzaga kelgan inqiroziga qarshi kurashish: YTTB tomonidan moliyalashtirish COVID-19 inqirozi kabi bozorning noqulay sharoitlari tufayli yuzaga kelgan likvidlilik tanqisligini samarali ravishda bartaraf etmoqda.

**Qo'shimcha shartlar tavsifi:** Global COVID-19 pandemiyasi sharoitida O'zbekistondagi xususiy banklar olishi mumkin bo'lgan yagona muddatli yalpi moliyalash manbasi hisoblangan Xalqaro moliyaviy muassasalar (XMM) moliyaviy mablag'laridan foydalanish imkoniyati kamaydi.

Ichki kapital bozorining muddatli moliyalash salohiyati mamlakatda endi rivojlanmoqda. Ushbu kredit liniyasi bankga qiyin sharoitga tushib qolgan kichik va o'rta biznes korxonalarini kreditlashda davom etish va ularning moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qanoatlantirishiga imkon beradi.

## Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Dilaziz Sultanov  
Tel.: (+998-71) 140-6943  
[www.ipakyulibank.com](http://www.ipakyulibank.com)

## O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumot bilan mana bu [havolada](#) tanishishingiz mumkin.

## Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling. YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: [projectenquiries@ebrd.com](mailto:projectenquiries@ebrd.com)

Davlat sektoridagi loyihalar uchun YTTB xaridlari sahifasiga o'ng:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: [procurement@ebrd.com](mailto:procurement@ebrd.com)

## Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar YTTB [so'rovlar](#) shaklidan foydalangan holda berilishi mumkin.

## Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlanish" tashabbusini ilgari surishda Ekologik va ijtimoiy siyosat va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

## Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun

ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika choratadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda [compliance@ebrd.com](mailto:compliance@ebrd.com) elektron pochta orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzidagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

## **Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)**

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. Mavjud ma'lumotlar bilan tanishib chiqish uchun YTTB veb-saytidagi [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ng.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

## **Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmi (IPAM)**

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmi ya'ni IPAM yordamida o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

IPAM, arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning maqsadi loyihaning manfaatdor tomonlari o'rtasida ekologik, ijtimoiy va axborotni ommaviy oshkor qilish bo'yicha muammolarini hal etishdagi murosani qo'llab-quvvatlash, Bank o'zining [Ekologik va ijtimoiy siyosatiga](#) yoki [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) ning loyihaga oid tartiblariga rioya qilayotganini tekshirish va zarur hollarda, kelajakda ushbu qoidalarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, shuningdek, Bank tomonidan kelgusida bunday holatlarning oldini olishdan iborat.

Loyiha so'rovlarini [Maxfiy onlayn shakl](#), [elektron pochta](#), [pochta yoki telefon](#) orqali qanday jo'natish haqidagi ma'lumotlarni Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmi veb-sahifasidan topishingiz mumkin. IPAM sizda yuzaga kelgan muammolarni muhokama qilish, shuningdek, [Loyiha bo'yicha hisobdorlik siyosati](#) va [ko'rsatmalariga](#) mos keluvchi so'rovlarni yuborish yoki ko'rib chiqish bilan bog'liq barcha savollarga javob berish uchun doimo tayyor. Kerak bo'lsa, arizachilarning shaxsiy ma'lumotlarini maxfiy saqlaymiz.